O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT SHAHAR
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-45, E-mail: dav_ekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Shermatov Jaxongir Rasulovich

Sana: 20-01-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

229071 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mingbuloq ko‘chasidagi “Qorasu-2” hududidagi issiqlik tarmoqlarini rekonstruksiya qilish (II-bosqich).	
Buyurtmachi:	“VEOLIA ENERGY TASHKENT” MChJ XK.
Bosh loyihachi:	"MUHANDISLIKTARMOQLARI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov asosida aniqlanadi.
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	047433

1. Loyihalash uchun asos.

1.1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabrdagi 594-sonli qarori va unga qo‘shimcha 1 va 2-sonli ilovalari.

1.2.Buyurtmachi vakili tomonidan rasmiylashtirilgan manzilli ro‘yxati va unga qo‘shimcha 1, 2, 3, 4, 5 va 6-ilovalari.

1.3.O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 07.11.2024-yildagi 1726-1726269-204902-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.

1.4.Buyurtmachi tomonidan 24.10.2024-yilda tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1.Ekspertiza ko‘rigiga qadar obyektning ta’mirlash ishlarining loyiha tashkiloti tomonidan nuqson dalolatnomasiga asosan tayyorlangan smeta hujjatlari umumiy qiymati buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz, 12 % QQS bilan hisoblanganda – 381 152,436 ming so‘mni, me’yoriy mehnat sarfi resurs smetasi bo‘yicha – 655,653 kishi/soatni tashkil etadi.

2.2.Obyekt yig‘ma lokal resurslarining ro‘yxati (Ishlatiladigan mashina va mexanizmlar hamda qurilish materiallar ro‘yxati).

2.3.O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 08.11.2024-yildagi 01-02/14-2691-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

2.4.“TRADE GEO SERVICE” MChJ tomonidan 2024-yilda 2-issiqlik tarmog‘ini rekonstruksiya qilish, 2-hudud bo‘yicha berilgan muhandislik-geologik sharoitlari Xulosasi.

2.5.Qurilish ishlarini olib borish uchun mutassaddi tashkilotlar bilan kelishuv varag‘i.

2.6.Loyiha tashkilotining 02.12.2024-yildagi 1/113-sonli murojaat xati.

2.7.“VEOLIA ENERGY TASHKENT” MChJ XK tomonidan 24.10.2024-yilda berilgan TTS-2-015-sonli texnik sharti.

2.8.Issiqlik tizimi chizmalari (AS, TS).

2.9.Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1.Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mingbuloq ko‘chasidagi “Qorasu-2” hududidagi issiqlik tarmoqlarini rekonstruksiya qilish (II-bosqich) ishlarida issiqlik “kamera”si ichidagi o‘lchamlari D219x6,0 mm va D45x2,5 mm temir quvurlarini almashtirish, bo‘yash, issiqlik tutib turuvchi materiallar bilan o‘rash, temir burchak (otvod)lar, o‘lchamlari DU 600 mm, DU 200 mmlik temir zulfinlarini va Du 40 mmlik jo‘mrakni o‘rnatish, mavjud issiqlik tarmog‘i temir quvuriga ulanish, to‘g‘ri to‘rt burchaklik o‘lchami 125x60x5,0 mmlik, to‘rt burchaklik o‘lchamlari 50x50x4,0 mm va 25x25x2,1 mmlik temir quvurlardan kuzatuv maydonchasi (smotrevaya ploshadka) ni yasash, bo‘yash va o‘rnatish, mavjud devorlarni burg‘ulab teshish va ularga to‘g‘ri to‘rt burchaklik o‘lchami 100x50x4,0 mmlik, to‘rt burchaklik o‘lchamlari 50x50x4,0 mm va 100x50x4,0 mmlik temir quvurlardan tutib turuvchi ustunlar o‘rnatish, zirxlangan profnastil bilan o‘rab chiqish, temir uchburchak (ugolok) va profnastildan iborat eshik o‘rnatish, tom qismiga to‘g‘ri to‘rt burchaklik o‘lchami 125x60x4,5 mmlik temir quvurdan tutib turuvchi “progon” o‘rnatish, bo‘yash, ustidan profnastil materiali bilan yopish, tomga chiqish uchun temir narvon o‘rnatish, bo‘yash ishlari kabi ta’mirlash ishlarni o‘z ichiga oladi.

3.2.Ishchilarning bir soat uchun o‘rtacha ish haqi, obyektning dastlabki bahosini aniqlashda hudud bo‘yicha quruvchilarning o‘rtacha oylik ish haqining miqdori asosida hisoblanib, me’yoriy mehnat sarfini 1 kishi-soat ko‘rsatkichining joriy narxiga (so‘m) ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari (12%) bilan qo‘shib hisoblanganda asosiy ish haqi uchun xarajat qiymati – 42 072,72 soat/so‘m belgilangan.

3.3.Qurilish materiallari uchun sarflanadigan transport xarajatlari miqdori – 3,0 %.

3.4.Buyurtmachining materiallari uchun sarflanadigan transport xarajatlari miqdori – 2,0 %.

3.5.Pudratchining boshqa xarajatlari – 17,27 %.

3.8.Qo‘shimcha qiymat solig‘i – 12,0 %.

3.9.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga asosan ta’mirlash ishlarining xarajatlari ishlab chiqilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Smeta hujjatlarida issiqlik tarmog‘ini ta’mirlash muhandislik ta’minotini ishlari ko‘zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Smeta hujjatlarida buyurtmachi bilan kelishilgan. Qo‘shimcha va e’tirozlar mavjud emas.

Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son hamda 2022-yil 20-apreldagi 200-sonli qarorlari talablariga amal qilsinlar.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga koʻra qoʻshimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **381 152 436** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

11 493 455 so'mga kamaytirilib, **369 658 981** soʻmni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **330 052 661** so'm

QQS: **39 606 320** so'm

6.1.Smeta hujjatlarini koʻrib chiqish jarayonida ekspert tomonidan aniqlangan hato va kamchiliklar loyiha tashkiloti tomonidan oʻzgartirish va tuzatishlar kiritilishi natijasida toʻgʻrilanib qayta toʻldirildi:

- dastlabki smeta hujjatlari hisob-kitobini kamaytirilishi yoki pasayganligi resurs smeta meʼyorlari, qurilish materiallarining narxlarini aniqlashtirish orqali qayta hisoblanish natijasida oʻzgartirildi (Loyiha tashkilotining javob xatini inobatga olgan holda).

6.2.Shartnoma boʻyicha import texnologik uskunalar va inventarlarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bogʻliq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan oʻtkazilmaydi.

6.3.Buyurtmachi obyekt boʻyicha oʻrnatiladigan barcha asbob-uskuna, jihozlarning roʻyxati (texnologik vositalar) va mebel inventar jihozlarni sotib olishida 2021-yil 22-apreldagi Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari toʻgʻrisida” gi 684-sonli qonun talablariga rioya etilsin.

6.4.Smeta hujjatlariga asosan joriy taʼmirlash ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan soʻng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.5.Buyurtmachi smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.6.Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonli qaroriga asosan Buyurtmachi qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan obyektlar boshlangʻich qiymati Davlat statistika qoʻmitasining rasmiy saytiga (stat.uz) qoʻyib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun oʻrtacha narxlar hamda oʻrtacha ish haqidan foydalangan holda shakllantiradi. Bundan tashqari, Buyurtmachi pudrat ishlari va qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlarini oʻtkazish, resurslarning davriy oʻrtacha narxlarini tasdiqlash huquqiga egaligi belgilangan.

6.7.Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qaror Nizomining 3-bob 29-bandiga muvofiq, ekspertizadan oʻtkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatarining toʻliqligi, maʼlumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

6.8.Smeta hujjatlarida koʻrsatilgan buyurtmachi va pudratchining boshqa xarajatlari miqdori boʻyicha shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi majburiyatni oʻz zimmasiga olmaydi.

6.9.Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonli qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishinni taʼminlaydi.

6.10.Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga oʻrnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini oʻzgartirish talabi qoʻyilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga toʻliq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.11.Ekspertiza natijalari buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan boʻlib, eʼtiroz va qoʻshimcha koʻrsatmalar mavjud emas.

6.12.Buyurtmachiga qurilish materiallari va uskunalarning narxlarini mintaqaviy bozor narxlari, shuningdek bevosita ishlab-chiqaruvchilar (yetkazib beruvchilar) narxlari, qurilish materiallarining birja va yarmarka narxlari bo‘yicha aniqlash tavsiya etiladi.

6.13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-220-sonli farmonini inobatga holda smeta hujjatlariga o‘zgartirish kiritilsin.

6.14.Buyurtmachi, loyihachi va pudrat tashkilotlari avtomobil yo’llarida yo`l harakati xavfsizligi ta`minlansin hamda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlariga amal qilgan holda loyiha-smeta hujjatlari IIV YHXB bilan kelishilsin.

7. Xulosalar.

7.1.**“Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mingbuloq ko‘chasidagi “Qorasu-2” hududidagi issiqlik tarmoqlarini rekonstruksiya qilish (II-bosqich)”** ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tayyorlangan smeta hujjatlari kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz, 12 % QQS bilan hisoblanganda **369 658,981** ming so‘mni tashkil etadi. Jumladan:

-qurilish materiallari va mahsulotlari, hamda konstruktsiyalar uchun sarflanadigan xarajatlar – 241 398,423 ming so‘mni;

-asosiy oylik uchun ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari xarajatlari bilan hisoblanganda – 23 661,212 ming so‘mni;

- mashina va mexanizmlar uchun sarflanadigan xarajatlar – 16 387,164 ming so‘mni;

- pudratchining boshqa xarajatlari (17,27 %) – 48 605,862 ming so‘mni;

- qo‘shimcha qiymat solig‘i (12%) – 39 606,320 ming so‘mni tashkil etadi.

7.2.Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdor buyurtmachi va pudratchi o‘rtasida shartnoma tuzishga asos bo‘la olmaydi.

7.3.O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi 684-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-sonli qarori talablariga rioya etilgan holda hamda ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o‘tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Bosh ekspert: Narmuxamedov Ilxom Nigmatovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Narmuxamedov Ilxom Nigmatovich